

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

QUROQCHILIK SAN'ATI SURXON VOHASI MISOLIDA

*Termiz davlat Muzey qo'rirqxonasi
 Etnografiya bo'limi yetakchi mutaxasisi
 Yuzboyeva Gulchehra*

Annotatsiya: Maqolada o'zbek milliy xalq hunarmandchiligining yorqin turlaridan quroqchilik san'atiningo'ziga xos tarixi rivojlanishi va tarixiy an'analari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Quroqchilik, san'at, dekatrofka, amaliy san'at, an'ana, badiiy bezak,mag'izli kvadrat,quroq, shaxmmat usuli.

Ko'p asrlik qadim tarix rivojlanish yo'lini bosib o'tgan o'zbek xalqining turli-tuman hunarlari o'ziga xos qadimiyligi an'analarga ega bo'lib, Markaziy Osiyoda xususan hunarmandchilik rivojlangan o'lklaridan biri hisoblangan. Xalq hunarmandchiligi avloddan-avlodga o'tib taraqqiy etgan va asrlararo ajdodlar fikrini orzu o'yłari va boshqa qadriyatlarini mujassamlashtirgan boy merosga aylangan.

O'zbekistonda ham quroqdo'zlik san'ati qadimdan ma'lum va o'ziga xos an'analari bilan boshqa xalqlar san'atidan ajralib turadi. Quroqdo'zlik hunarining yurtimizda qachon paydo bo'lgani haqida aniq ma'lumotlar yo'q. Ammo u xalq ehtiyojidan kelib chiqib yaratilgani aytildi.

Qadim davrlardanoq kamchiqim oilalar mato va gazlamlardan avaylab foydalangan. Eski kiyim va matolarning butun qismlari ajratib olinib, ularni birlashtirib, yangi ro'zg'or buyumlari yoki liboslar tikilgan. Dastlab tejamkorlik maqsadida yaratilgan quroqdo'zlik buyumlari bugunga kelib san'at darajasiga ko'tarildi.

Yurtimizda quroqqa oid ayrim manbalar bizgacha ham yetib kelgan. Quroq, ya'ni yamoq darveshlar choponida uchragan bo'lib, ular marqa' va hirqa deb atalgan. XV asr tarixchisi Husayn Voiz Koshifiyning yozishicha, marqa' va hirqa yirtiq-yamoq bo'lgan eski choponlarga nisbatan aytilgan.

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning " Nasoyim ul-Muxabbat" taskirasida "muraqqa" so'zi uchrab, bu so'z ham darveshlarning libosi o'rnida qo'llanilgan. O'rta asr tasavvuf ahli, asosan, muraqqa' va shunga o'xshash liboslarda tasvirlanadi. Masalan, Kamoliddin Husayn Fanoiyning "Majolis ul-ushshoq" asarida shunday tasvirlarni uchratishimiz mumkin. Muraqqa' yoxud quroqdan tikilgan liboslar yomon nazar va balolardan asraydi, deb ishonilgan.

Quroqchilik u o'ziga xos tayyorlash jarayoniga ega. Quroq tikish jarayoni o'rganayotgan kishining qobilayatini sabr-toqatini yangilik yaratish sezgisini rivojlantiradi. Bu quroqchilik usulida tikilgan buyumlar yuqori didni, go'zallikni, sabr-toqatlilikni, mehnatsevarlikni talab qiladi. Bizda bu tikish usuli "Quroq" deb ataladi.

Milliy quroqchilik san'ati bu o'lmas san'atlardan biri ya'ni xalq amaliy san'atlaridan bir hisoblanadi. Quroqchilik san'ati tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak bu quroqchilik usullarin ildizlarini sharqdan topish mimkin. Masalan Yegiptda ya'ni Kair shahrining chekka qishloqlarida bu usul bilan 3000 yil avval tikilgan buyumlar topilgan. Quroq tikish usuli bilan yer yuzining ko'pgina joylarida ham shug'ullanib kelingan. Keyinchalik o'rta ta'minlangan oilalarda uylar bezatilib va ro'zg'or mahsulotlari tayyorlanib asta-sekin dunyo bo'ylab hamma xalqlar orasida

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

tarqalib ketgan va amaliy san'atiga aylangan. Bunday bajarilgan ishlar Angliya, Amerika, Shvetsariya, Germaniya, Shvetsiya va Avstraliya muzeylarida joy topgan. O'zbekistonning barcha viloyatlarida jumladan Surxondaryo, Qashqadaryo viloyatlarida xalq amaliy san'atining "Quroqchilik" usuli bilan shug'ullanishadi. Surxondaryo viloyatida viloyatida xalq hunarmandchiligi hisoblangan quroqchilikning "kvadrat", "mag'izli kvadrat", "olma", "yulduzcha", "shaxmati", "turna" va ularning xakozo shakllaridan foydalaniladi. Gazlama qoldiqlarini isrof qilmasdan ko'rpa-ko'rpachalar, yostiqlar, chimildiqlar, poyandozlar, dasturxonlar, divan-kreslo jihozlari va xakozo. Uy ro'zg'or buyumlari va xonalarni bezash uchun kerakli bo'lган buyumlar tayyorlanadi. Quroqchilik buyumlarini tayyorlashdan maqsad unutiladyotgan "Quroqchilik" amaliy san'atimizni qayta tiklash va istiqomat qiladigan, xordiq chiqaradigan ya'ni yashab turgan uyimiz shinam, qulay va albatta chiroyli bo'lishi kerak. Bunday sharoitga erishish uchun qimmat baho matolardan tikilgan uy ro'zg'or buyumlari sotib olish shart emas, balki ularni o'z qo'limiz bilan yarartishimiz ham mumkin. Bunda uy bekalari uchun nafaqat yangi gazlamalar, balki avval ishlatilgan yoki gazlama chetlaridan ortib qolgan mato qoldiqlari kiyishga yaroqsiz bo'lib qolgan buymlardan ajoyib antiqa uy anjomlari tayyorlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Buning uchun ulardan sabr-toqat ishga ijodiy yondoshish va mavjud bo'lган xomashyodan unumli foydalanish talab qlinadi. Uy anjomlarini ko'p qismini gazlama qoldiqlaridan tayyorlash mumkin. Quroq – bu bitta buymdan rang va shakl turiga bo'lган gazlama qoldiqlarini birlashtirishdir. Bu usul bilan yostiq jiddlar, divan va stol uchun g'iloflar, gilamchalar, to'shamma shuningdek, kiyimlar uchun bezaklar tayyoralsh mumkin. Quroq usullaridan istalgan gazlamadan ham yangi yoki avval ishlatilgan gazlamalardan foydalanish nazarda tutiladi. Yangi gazlamani ishlatishdan abvval dekatrofka (ipak va jun gazlamalarni kirishmaydigan qilish uchun bug' yoki qaynoq suv bilan ishlov berish usuli) bug'lash lozim. Chunki, bitta buyumlardan tayyorlanganda bir necha xil gazlama ishlatilishi natijasida buyum yuviladi, so'ng o'z ko'rinishini o'zgartirishi mumkin. Avval ishlatilgan gazlama bo'laklarini esa kraxmallash va dazmollash kerak. Paxta tolali gazlama qoldiqlarini ishlatish uchun qulay xisoblanadi. Inson bilan tabiatning uyg'un munosabatlari to'g'risidagi ana shu g'oyalar Movorounnahrda musulmon uyg'onish davriga juda katta hissa qo'shgan. Markaziy Osiyodagi sufiylik ta'limotlarida ham uchrashi tasodify emas. Mana shu misol biz uchun chuqur ramziy ma'noga ega. Hozirgi kunda yoshlarga bilim berish bilan birgalikda, ularni hunarga o'rgatish, milliy urf-odatlarimizni hurmat qilishga o'rgatish, tarixi, hayotda o'z yo'llarini topib qiynalmasliklari uchun ham har xil to'garaklar ish olib borilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. K.M. G'ulomov. Amaliy san'at. – Toshkent, 2008.
2. Q.M.Abdullayeva, M.A.Maxsumova, M.H.Rahimjonova. Gazlamaga badiiy ishlov berish, kashtachilik va uni o'qitish metodikasi. (Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma) – Toshkent: Voris-Nashriyot, 2012.
3. S.S. Bulatov. O'zbekiston xalq amaliy bezak san'ati. – Toshkent, 1991.
- 4.X.B.Muhammedova. Mehnat ta'limi darslarida o'quvchilarning xalq hunarmandchiligiga oid bilim va ko'nikmalarni shakllantirish metodikalari. 5.Б.Х.Кармынова. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. – Москва, 1976.